
YURT POSBONLARI BAYRAM MUBORAK!



25 oktyabr - Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni

Tinchlik – bebaho neʼmat. Uni saqlamoq, avaylamoq, kerak boʻlsa bu yoʻlda jon fido qilish shu zaminda yashayotgan har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Taʼkidlash joizki, osuda hayotimiz, musaffo osmonimiz, aziz bolajonlarimizning quvnoq kulgisi, ota-onalarimizning farovon umr kechirishi yurtimizdagi barqarorlik – tinchlik tufaylidir. Paygʻambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bir hadislarida tinchlik-xotirjamlik eng katta neʼmat ekanligini taʼkidlab, shunday deganlar: «Ikki neʼmat borki, koʻpchilik insonlar uning qadriga yetmaydilar. Ular xotirjamlik va sihat-salomatlikdir».

Demak, tinchlik va xotirjamlik Alloh taoloning buyuk ilohiy neʼmatlaridan biridir. Qolaversa, barcha ezgu ishlar roʻyobga chiqishining boisi ham osoyishtalikdir. Shunday ekan, insonlar nafaqat mavjud tinchlikni qadriga yetib, shukrini ado etishlari balki, unga noshukrlik qilib, putur yetkazib qoʻyishdan ham saqlanishlari lozim.

Tinchlik-xotirjamlik doim eʼzozlanadigan, uning uchun tinmay shukrona aytiladigan aziz neʼmatdir. Yaratgan Robbimizga hamdu sanolar boʻlsinki, oʻzbek xalqiga ana shu aziz neʼmatni nasibu roʻz ayladi. Yurtimiz tinch, hayotimiz bir maromda, xotirjam kechmoqda, kunlarimiz yorugʻ, tunlarimiz osuda. Har kuni erta tongda ketib, kechqurun ishdan qaytamizmi, bir necha kunlik uzoq safarlarda boʻlamizmi, oila aʼzolarimizdan koʻnglimiz xotirjam.

Oynai jahon orqali osmonini urushning qora buluti qoplagan, har kuni begunoh qonlar toʻkilib, insonning insonlik, fuqarolik haq-huquqi poymol qilinayotgan, uy-joyi vayron, ekini payhon, mol-mulki talon-taroj boʻlayotgan yurtlarni koʻrganimizda Vatanimizdagi dorilomon kunlarning qadriga yanada chuqurroq his qilamiz, Parvardigorimizga hamdu sanolar aytamiz. Ayni paytda bu osuda hayotning xavfsizligini himoya qilayotgan, kecha-kunduz xizmatda shay turgan tinchligimiz posbonlariga ham minnatdorchilik bildiramiz, rahmatlar aytamiz. Ularning xizmatlarini yuksak qadrlaymiz va har yili oktyabr oyining 25 kunini – Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni sifatida butun yurtimizda keng nishonlaymiz.

Ana shu kun munosabat bilan Ichki ishlar idoralarining barcha xodimlarini hamda Qoʻshitepa tumani IIB xodimlarini, ichki ishlar idoralari faxriylarini bu bayram bilan samimiy muborakbod etamiz.

Bugun yurtimiz tinch, hayotimiz farovon. Bu yoʻlda kamarbarsta boʻlayotgan yurt posbonlarini yana bir karra kasb bayramlari bilan muborakbod etamiz!

Bayramingiz qutlugʻ boʻlsin!

Abduhoshim AHMADALIYEV,

Qoʻshitepa tumani bosh imom-xatibi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2022-10-25 08:33:00